



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING  
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 8 - dekabr

217-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Termiz shahar Navbahor ko'chasidan Surxondaryo viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi" injiniring kompaniyasiga 50 o'rinali "Nuroniy maskani" binosini qurish uchun yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5-moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagagi 543-son qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 1-2-iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 30-sonli yig'ilish bayonining 100-bandji ijrosini ta'minlash maqsadida, Termiz shahar hokimining 2021-yil 16-sentabrdagi 01-01/154-son xatini inobatga olib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Termiz shahar Navbahor ko'chasidan 0,3 hektar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni 50 o'rinali "Nuroniy maskani" binosini qurish uchun Surxondaryo viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi" injiniring kompaniyasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o'zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlaringning loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida

(surxondaryo.uz) e'lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rribbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**